

**DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARI VA XARAJATLARI****Sattarova Shoira Almuratovna***Bank-Moliya Akademiyasi "Soliq va soliqqa tortish" yo'nalish magistiri*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada budjet mablag'lari ijrosi samaradorligini oshirishda jamoatchilik nazoratini tahlil va monitoring qilish tartibini takomillashtirish, budjet mablag'laridan oqilona foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayoni keltrilgan. Muallif "budjet daromadi" tushunchasining mohiyatini budjet, soliq qonunchiliga muvofiq, milliy daromadning bir qismi iqtisodiy subektlardan hamda fuqarolarda davlat hokimiyati ixtiyoriga, qaytarmalik shartida olinishi bilan izohlashga harakat qiladi. Muallifning fikricha, bir-biri bilan bog'liq bolgan ikki jarayon mavjud. Birinchisi, davlat ixtiyoriga moliyaviy resurslarni jamlash bo'lsa, ikkinchi jarayon jamlangan mablaglarni davlat ehtiyoji uchun ishlatish. Bunda, birinchi jarayon "davlat daromadi", deb talqin qilinsa, ikkinchi jarayon – "davlat xarajalari", deb ataladi. Aynan shu jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yib samarali foydalanish davlat iqtisodi uchun samaralidir.

**Kalit so'zlar:** *davlat budgeti, moliyalashtirish, xarajatlar, daromadlar, prognozlash, soliqlar, iqtisodiy xarajatlar, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, davlat xaridlari, daromadlar va xarajatlar smetasi.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается улучшение порядка анализа и мониторинга общественного контроля для повышения эффективности исполнения бюджетных средств, а также представлено изложение исследований по рациональному использованию бюджетных средств. Автор пытается объяснить сущность понятия "бюджетный доход" в соответствии с бюджетным и налоговым законодательством как часть национального дохода, получаемую от экономических субъектов и граждан на условиях возвратности в распоряжение государственного управления. По мнению автора, существуют два взаимосвязанных процесса. Первый — это мобилизация финансовых ресурсов в распоряжение государства, второй — использование собранных средств для нужд государства. При этом первый процесс можно трактовать как "государственные доходы", а второй — как "государственные расходы". Именно правильная организация этих процессов и эффективное их использование являются важными для государственной экономики.

**Ключевые слова:** *государственный бюджет, финансирование, расходы, доходы, прогнозирование, налоги, экономические расходы, смета временных расходов, государственные закупки, смета доходов и расходов.*

**Annotation:** In this article, the improvement of the analysis and monitoring procedures for public oversight aimed at enhancing the efficiency of budget fund

execution is discussed, along with a summary of research on the rational use of budgetary resources. The author attempts to explain the essence of the concept of "budget revenue" in accordance with budget and tax legislation as a part of national income received from economic entities and citizens on a returnable basis for the disposal of government authority. According to the author, there are two interconnected processes. The first is the mobilization of financial resources for the state's disposal, while the second is the use of accumulated funds for state needs. In this context, the first process can be interpreted as "state revenues," and the second process as "state expenditures." The proper organization and effective utilization of these processes are crucial for the state economy.

**Keywords:** state budget, financing, expenditures, revenues, forecasting, taxes, economic expenditures, temporary expenditure estimates, government procurement, revenue and expenditure estimates.

### Kirish.

Ma'lumki, Davlat budjeti iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi omildir, boshqacha qilib aytganda, budjet - islohotlarning eng muhim dastaklaridan biri vazifasini o'taydi, chunki kirimga qarab chiqim qilish iqtisodiyotning oltin qoidasi hisoblanadi. Biz yashayottan globallashuv jarayonida Respublikamizning resurs muammosini xal etish, xalqaro axborotlarni jalb qilish, moliyaviy va to'liq budgetni to'ldirish, budget o'rtasidagi munosabatlarni nazorat qilish va budgetdan samarali foydalanish muxim axamiyatga ega va bu jarayonlar budgetlarni nazorat qilish hamda davlat xarajatlarini to'g'ri taqsimlash daromadlaridan esa samarali foydalanish zarurdir. Mamlakatimizda davlat moliyasini tashkil etish va sog'iomlashtirish, budget daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan budget siyosati tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat miqyosida dasturlarning qabul qilinishi o'z ijobiy natijalarini bermoqda.

### Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga doir adabiyotlami taxlil qilish mabaynida bir nechta yetakchi iqtisodchi olimlar va mutuxassislar izlanishlar olib borganligiga guvoh bo'lamic. Bu borada, XVIII asrda yashab, o'z tadqiqotlarini amalga oshirgan taniqli iqtisodchi - olimlar - Uilyam Petti, F.Kene, Adam Smitlar, davlat moliyasi nazariyasini shakllanishiga katta hissa qo'shdilar. Ularning ilmiy risolalarida bayon qilingan nazariy qarashlar davlat moliyasining zamonaviy nazariyasining fundamentini tashkil qiladi, deb aytsak, adashmaymiz.

Ye.A.Sidorovaning (2012) "Yevropa Ittifogining budget siyosatini o'ziga xosligi" nomli ilmiy risolasida "budget" tushunchasi quyidagicha talqin qilingan:

“budjet, iqtisodiy kategoriya sifatida, davlat hokimiyatining funksiyalarini va vakolatlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash, keyinchalik undan foydalanish bilan bog'liq jami iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Moddiylik nuqtai nazaridan, budjetni davlat xarajatlarini qoplash uchun shakllantiriluvchi moliyaviy resurslar jamg'armasi, deb ta'riflash mumkin” degan.

Y.S.Dolganova, N.Y.Isakova, N.A. (2019) fikricha, “Budget mamlakat moliyaviy tizimida markaziy o'rinni egallaydi va u davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. Budget nafaqat davlat hokimiyati idoralarining funksiyasini bajarilishini ta'minlovchi moliyaviy asos, balkim mamlakat mustagilligini zamini hamdir”.

K.S.Belskiy va O.N.Gorbunova, E.Yu.Grachyova (2011) “davlat budgetini - davlatning moliyaviy tizimini markaziy bo'g'ini ... davlatning moliyaviy siyosatining amalga oshirishning muhim dastagidir” deb tushuntirishga harakat qilishadilar.

Iqisodchi olimlardan hisoblanagan V.I.Boresovich va G.A.Kandaurovalar tomonidan (2001) davlat budgeti daromadlarini prognozlashtirish - ilmiy hisob-kitoblar va taxminlarga asoslangan holda, budget daromadlarini kelgusidagi miqdori, manbalari va kelib tushish muddatlarini aniqlashdan iboratdir deb fikr bildirganlar.

A. V. Vahobov, T.S. Malikovlar “Davlat bor ekan, davlat budgetiga to'lovlar ham mavjud bo ladi. Lekin budgetga to'lovlar shakli ma'lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o'zgarib boradi” deb takidlashganlar.

### **Tahlil va natijalar**

Davlat budgetining xarajatlari xarajatlarning konkret turlari orqali namoyon bo'ladi. Budget xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisodiy tabiatni va funksiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; budgetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; budget mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h.k. Jamiyatning iqtisodiy hayotida budget xarajatiarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra turkumlashtirish maqsadga muvofiq. Ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni, ijtimoiy takror ish lab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha va ma'lum maqsadlariga ko'ra alohida guruhlarga ajratilishi mumkin. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra Davlat budgetining xarajatlari kapital va joriy xarajatlarga bo'linadi. Budgetning kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Davlat budgetining xarajatlarini quyida keltirilgan 1-rasmda ko'rish mumkin:

ijtimoiy soha va aholini  
ijtimoiy qo'llab-quvvatlash  
xarajatlari;

davlat hokimiysi va  
boshqaruvi organlarini, adliya  
va prokuratura organlarini  
saqlab turish xarajatlari;

fuqarolarning o'zini o'zi  
boshqarish organlarini  
saqlab turish xarajatlari;

nodavlat notijorat  
tashkilotlarini va  
fuqarolik jamiyatining  
boshqa institutlarini  
davlat tomonidan  
qo'llab-quvvatlash  
xarajatlari;

markazlashtirilgan  
investitsiyalarni  
moliyalashtirish  
xarajatlari;

iqtisodiy xarajatlari;  
sudlarni saqlab turish  
xarajatlari;

boshqa xarajatlari.

### **1-rasm Davlat budjeti xarajatlari**

Ushbu xarajatlар O'zbekiston Respublikasi Davlat Budjeti Kodeksining 69-Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi moddasida berilgan bo'lib undan tashqari yana 70-modda O'zbekiston Respublikasi respublika budgetining xarajatlari 71-modda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining xarajatlari 72-modda Tumanlar va shaharlar budgetlarining xarajatlari va yana bir qancha moddalarda berib o'tilgan. Davlat budjeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai nazaridan baholashni dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas.

Bunda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darjasini, ijtimoiy muammolarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Albatta, milliy xo'jalikning yakuniy natijasi budget xarajailarining umumiyligi hajmiga, ularning tarkibiy tuzilishiga, budget mablag'laridan to'g'ri, tejamli va samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda budget xarajatlarining ilmiy asoslangan holda rejallashtirilishiga, budget assignovaniyalaridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratning butun tizimiga alohida e'tibor berish lozim. latning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda budget mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilalar bilan belgilanadi.

Davlat budgetining xarajatlaridan foydalanish budgetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, budgetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlami amalga oshirish uchun sub'ektlarga budgetdan mablag'larni

taqdim etish tizirni tushuniladi. U pul mablag'larini taqdim etishning o'ziga xos bo'lgan shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma'lum bir prinsiplarga tayanadi. Budgetdan moliyalashtirishning prinsiplari, shakllari va metodlari bu tizimning tarkibiy elementlari bo'lib hisoblanadi va uning amal qilish natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilayotgan paytda budgetdan oqilona va samarali moliyalashtirish tizimining ahamiyati yanada ortadi. Budgetdan moliyalashtirishning oqilona tizimini tashkil etishda, eng awalo, moliyalashtirish prinsiplari muhim rol o'yndi. Hozirgi amaliyotda foydalanilayotgan budgetdan moliyalashtirishning prinsiplarini umumiyligi va xususiy guruhlarga bo'lish mumkin. Umumiyligi prinsiplar budgetdan mablag' oladigan barcha sub'ektlarning faoliyatiga tegishlidir. Xususiy prinsiplar esa sub'ektlar faoliyatining tashkil etilishiga bog'liq ravishda budget mablag'larining taqdim etilish tartibini belgilab beradi. Budgetdan moliyalashtirishning umumiyligi prinsiplari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin (2-rasm):



## **2-rasm Budgetdan moliyalashtirishning umumiyligi prinsiplari**

Mamlakat milliy xo'jaligini moliyaviy jihatdan tartibga solish Davlat budgeti daromadlarini rejashtirish va budgetdan moliyalashtirish jarayonlari davomida amalga oshiriladi. Rejashtirishjarayonining o'zidayoq Davlat budgeti xarajatlarining umumiyligi hajmi gorizontaliga (tarmoq, vazirlik va maqsadli yo'nalishlarga) va vertikaliga (boshqaruvning turli darajalariga muvofiq ravishda) taqsimlanib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi uchun tegishli sharoit yaratiladi. Budgetdan moliyalashtirish jarayonida esa davlat o'zining ixtiyoriga kelib tushayotgan pul mablag'larini rejashtirilgan tadbirlar doirasida va undan tashqarida keng xarajat qilish imkoniga ega bo'ladi. Mablag'lami konkret taqsimlovchilarga budget kreditlarini ochish, budget assignovaniyalarini berish va ulardan samarali foydalanishni nazorat qilib, moliya organlari iqtisodiyotning rivojlanishi ustidan kuzatuv olib boradilar va zarur holatlarda taqsimlanayotgan budget mablag'lari proporsiyalarini o'zgartiradilar. Daromadlarni davlat budgetidagi xarajatlarning aniq turlari va yo'nalishlari bo'yicha biriktirilishi prinsipi bo'limganligi uchun bu yerda budget resurslarini keng miqyosda o'tkazish va shunga muvofiq ravishda davlatning ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'laridan har qanday zarur yo'nalishlarda foydalanilishi mumkin.

Budget daromadlari davlatni markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, davlat funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi. Qayd etilganlarni inobatga olgan holda unga budget daromadlarining ma'no-mazmunini ifodalovchi quyidagi ta'ritlarni berish mumkin: pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan daviat markaziashtirilgan moiyyaviy resurslarining bir qismi budget daromadlari deyiladi. Mamlakatiarning davlat tuzilishiga bog'liq ravishda budget daromadlari quyidagicha farqianadi:

markaziy (davlat) budget daromadlari;

unitar (yagona) davlatlardagi mahalliy budgetlar daromadlari.

Federativ (ittifoqchilik) tuzilishga ega bo'igan davlatlarda budget daromadlarining bu ikki ko'rinishi federatsiya a'zolari budgetJarining daromadlari bilan to'ldiriladi. Budget daromadlari davlat daromadlariga nisbatan torroq darajadagi tushunchadir. Chunki davlat daromadlari hokimiyatning barcha darajadagi budgetlarining moliyaviy mablag'lari bilan birgalikda yana o'zining tarkibiga davlatning budgetdan tashqari jamg'armalar va barcha davlat sektoriga tegishli bo'lgan boshqa resurslarni ham qamrab oladi. Budget daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad yetarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikni jalb etishi mumkin.

Bu yerda milliy boylik deyilganda ma'lum bir davrdajamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan rnoddiiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishjarayonigajalb qilingan tabiiy resurslar majrnui nazarda tutilayapti. Budget daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tush ish shakli, ularni budgetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin. Budget daromadlari o'z manbalariga ko'ra quyidagi gurnhlarga bo'linadi:

soliqli daromadlar;

soliqsiz daromadlar;

tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Quyida keltirilgan 1-jadval orqali 2024-yil daromadlari va xarajatlari prognozlarini ko'rishimiz mumkin:

### 1-jadval

**2024-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgetining, viloyatlar hamda  
Toshkent shahar mahalliy budgetlarining daromadlari va xarajatlari  
prognozlari**

mlrd so‘m

<b>T/r</b>	<b>Hududlar nomi</b>	<b>Daromadlar*</b>	<b>Xarajatlar**</b>
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 069,3	5 147,3
2.	Andijon viloyati	4 087,3	6 001,1
3.	Buxoro viloyati	4 232,4	4 593,5
4.	Jizzax viloyati	2 415,6	3 304,2
5.	Qashqadaryo viloyati	4 879,1	5 806,2
6.	Navoiy viloyati	2 904,1	3 086,6
7.	Namangan viloyati	3 564,7	5 548,7

Keltirilgan jadvalga asoslanib Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budgetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlarini tahlil qilish mumkin.

### **Xulosa**

Davlat budgetining uzluksiz barqarorligiga erishish, eng avvalo davlat budgeti daromadlari barqarorligini ta‘minlash, shuningdek davlat budgeti xarajatlarini optimallashtirish bilan bog‘liqdir. Davlat budgeti daromadlari doimiyligini ta‘minlash va ularning budgetga tushishi ustidan samarali moliyaviy nazorat o‘matish, budget intizomiga to‘liq rioya etish o‘z navbatida budget bargarorligini ta‘minlashga sharoit yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi ham boshga ko‘plab davlatlar singari, o‘zining turli davlat xarajatlari va xizmatlarini moliyalashtirishda ko‘p jihatdan soliq tushumlariga tayanadi. Davlat budgeti daromadlarini oshirish uchun bir nechta takliflar mavjud. Soliq tizimini takomillashtirish- Soliq darajalarini ko‘tarish, eng zarur xizmatlar uchun imtiyozlar berish.

Soliq to‘lovchilarning bazasini kengaytirish, masalan, onlayn xizmatlar orqali yangi soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olish. Korxonalarining ko‘proq hisobot berishlari uchun rag‘batlantirish Kichik va o‘rta biznesga soliq imtiyozlari berish orqali ular tomonidan to‘lovlar oshirilishi. Davlat mulkini samarali boshqarish- Davlat mulkini

privatizatsiya qilish yoki ijara asosida berish orqali daromadlarni oshirish. Mulkni saqlash va rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish.

Investitsiyalarni jalb qilish- Tashqi va ichki investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Ommaviy investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va moliyalashtirish. Samarasiz xarajatlarni qisqartirish - Xarajatlarni tahlil qilish va samarali bo'limgan xarajatlarni kamaytirish. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali xarajatlarni qisqartirish. Ushbu takliflar davlat budjetini yanada mustahkamlash va daromadlarini oshirishda yordam beradi. Har bir taklifni amalga oshirish uchun aniq reja va monitoring tizimini joriy etish muhimdir.

### **Adabiyotlar:**

1. 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat Budgeti to'g'risidagi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining Solig kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi.
4. Dolanova Yu. S., Isakova N.Yu., Istomina N.A. ( др.); Финансы :уробник / под общ, ред. канд. экон. наук, доц. НЮ. Исаковой : Мин-зо обр. и науки РФ. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019.
5. Yakobson L.I. Государственный сектор экономики. Экономическая теория и политика. - М.: ГУ ВШЭ, 2000.
6. A.V. Vaxobov,T.S Malikov, "Moliya" Darslik, 2012-yil.
7. Semyonov A. V. Механизм распределения налогов между бюджетами регионов. М.: АОЗТ «Маска», 1999,..
8. Malikov T.S., Haydarov N., Davlat budgeti. O'qur qo'lanma /Toshkent moliya instituti, T.: Iqisod-Moliya, 2007.
9. U.Inoyatov va G.Ahmadjonovalar "Budget va budget tizimi" O'quv qo'llanma Turon- Iqbol 2006-yil.
- 10.S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov "Budget tizimi" Darslik, 2017-yil.
- 11.J.R.Zaynalov, B.Sh.Xusanov, S.S.Aliyev, Sh.M.Latipova "Davlat budgeti" O'quv qo 'llanma, 2021-yil.
- 12.Soliq qo mitasining rasmiy sayti - <https://soliq.uz>
- 13.Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti - <https://mf.uz>
- 14.Davlat statistika qo 'mitasining rasmiy sayti- <https://stat.uz>
15. www.lex.uz